

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Azamov Valixon Fayzullayevich**

Toshkent Gidrometeorologiya texnikumi mahsus fan o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda axborot texnologiyalarining ahamiyati va ularning jamiyatdagii o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Texnologiya, rivojlanish, innovations texnologiya, axborot texnologiyasi, kompyuter.

Hozirgi kunda ta'limi rivojlantirish unda sifat darajasini oshirish maqsadida innovations texnologiyalarni qo'llanilishi keng tarqalgan metodik qo'llanmalardan biriga aylandi. Bugungi kunda innovations texnologiyalarni talimda kiritilishi ta'lim jarayonini osonlashtirdi desak adashmaymiz. Mustaqilligimizdan so'ng "kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta'lim sifatiga e'tibor yanada kuchaydi. Unda o'qituvchi bilim malakalarini oshirish o'quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta'limda innovations qurilmalar ya'ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida foydalanash hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng qo'llamda ishlatilish imkoniyatlarini berdi. So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash savol miqiyosida ko'tarildi. Ma'lumki, hozirgi globallashuv jarayonida har bir shaxs va muta-xassis o'z sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra ijtimoiy hayotimizda raqamli iqtisodiyot ko'laming kengayib borishi har bir shaxsdan bu sohada yetarlicha bilim, iqtidor va tajribalar talab etadi. Ammo bu tizimga kishilik jamiyatini moslashtirish asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Azaldan axborot deganda atrof-muhit obyektlari va hodisalari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lum otlar tushuniladi. Keng ma'noda axborot — insonlar o'rtasida ma'lumot ayirboshlash, odamlar va sun'iy qurilmalar o'rtasida signal ayirbosh-lashni ifoda etadigan umummilliy tushunchadir. Axborotga ishlov berish texnologiyalari bugungi kunda hayotimiz-ning hamma sohalarini qamrab olgan. Informatikaning asosiy resursi — axborotdir.

Axborotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish insoniyat taraq-qiyotining har bir bosqichida turlicha rivojlanib borib, har xil ko'rinish-larga ega bo'lган. Eng sodda zamonaviy axborot sistemasigacha uning paydo bo'lishi, so'ngra

muloqotning paydo bo'lishi uchun insondan alohida vosita talab qilinmagan. Unga inson miyasining quvvati yetarli hisoblangan.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jihatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir necha turlarga bo'linadi: Ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari. Ular ma'lum aniq algoritmlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov beruvchi masalalarni yechishga mo'ljallangan. Masalan, har bir tashkilotda o'zining xodimlari haqidagi axborotga ishlov beruvchi.

Boshqarishning axborot texnologiyalari. Ularning maqsadi ish faoliyati qaror qabul qilish bilan bog`liq bo`lgan insonlarning axborotga bo`lgan talabini qondirishdan iborat. Masalan, boshqarishning axborot tizimlari tashkilotning o'tmishi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi axborotni beruvchi.

Tashkilot axborot texnologiyasi. Avtomatlashtirilgan tashkilot zamonaviy axborot texnologiyalari bu - tashkilot ichidagi va tashqi muhit bilan kommunikatsion jarayonlarni kompyuter tarmoqlari va axborotlar bilan ishlovchi boshqa zamonaviy vositalar asosida tashkil etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun maxsus dasturiy vositalar ham ishlab chiqilgan. Ulardan biri Microsoft Office dasturlar majmuasidir. Uning tarkibiga matn muharriri, elektron jadval, taqdimot muharriri, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari kiradi. Hozirgi paytdagi kompyuterlar uchun ko'plab dasturiy vositalar mavjudki, ular barcha turdag'i axborot texnologiyalarini ta'minlay oladi.

Ma'lumotlar ombori. Har qanday axborot texnologiyasining majburiy elementi ma'lumotlar omboridir (MO). Avtomatlashtirilgan tashkilotda MO firmanın ishlab chiqarish tizimi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

Axborot bilan qamrab olinmagan biror muhim xo'jalik sohaga (masalan, ta'lim, ishlab chiqarish, transport, kredit-moliya, savdo, qishloq xo'jalik) misol keltirish qiyinmas. Ayni paytda kompyuterlar va aloqa vositalari asosida axborotni toplash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy usullari, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarni sotish (tarqatish) maqsadlarida ishlab chiqarish mustaqil tarmoq sifatida shakllandi va ajralib chiqdi. Shunday qilib, xalq xo'jaligini axborotlashtirish kelgusiga axborot texnologiyasining inqilobiga o'tish demakdir.

Axborot texnologiyalari, shu jumladan, kompyuterlar keng qo'llanilib kelayotgan ayrim sohalarni sanab o'tamiz. Biznes sohasi. Axborot texnologiyalari yangi korxona yoki firmanın muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishida katta rol o'ynaydi. Masalan,

- biznes reja tuzishda va kutilayotgan daromad va chiqimlarni hisoblashda;
  - tashkilot yoki firmanın yorlig'ini va tegishli hujjatlarini tartibga keltirishda;
  - tashkilot yoki firmanın taqdimot marosimini o'tkazishda;
  - reklamalarning loyihasini tuzish va reklama materiallарini tayyorlash, hisobotlar, shartnomalarni tayyorlashda;
  - mijozlar haqidagi ma'lumotlar ro'yxatini saqlash va u bilan ishlashda;
  - boshqa firmalar, potensial ta'minotchi, ulgurji xaridorlar bilan bog'lanishda;
  - mijozlar va ta'minotchilar bilan muzokara olib borish va hokazolarda.
- Shunday qilib tashkilot yoki firmanın taraqqiy etishi uchun albatta axborot texnologiyasi ya`ni kompyuterlarning imkoniyati va o'rni katta. Bank sohasi. Bank tizimi o'zining ish faoliyatida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo`lgan tashkilot hisoblanadi. Masalan,
- yil davomida bir sutkasiga 24 soat mijozlarga aloqa uchun va tegishli ma'lumotlarni olish, ma'lumotnomani tekshirish, hisobni to'lash imkoniyatini yaratish;
  - mijozlarga xizmat ko`rsatish madaniyatini oshirish;
  - kredit kartochkalari yordamida telefon yoki Internet orqali xizmatni yo`lga qo'yish;
  - mijozlar haqidagi ma'lumotlarni saqlash;
  - Bankning hisob raqamlari haqidagi ma'lumotlar va boshqalar.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi uzluksizlikni ta'minlashda xorij tajribasini chuqur o'rganish, ilg'or uslublarni mahalliy kadrlar tayyorlash tizimiga tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. SHu bois, 2019 yilda Toshkent shahrida Amiti universiteti faoliyati yo'lga qo'yildi. Unga xorijiy mamlakatlardan 17 nafar PhD darajasiga ega professor-o'qituvchi jalg qilindi. O'tgan o'quv yilida 498 nafar talaba mazkur universitetning birinchi kursini bitirdi. 2020-2021 o'quv yili uchun kirish imtihonlari to'liq onlayn shaklda tashkil etilib, mazkur oliy ta'lim muassasasiga 384 nafar talaba qabul qilindi.
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabda O'zbekistonning bolajak ilg'or kadrlari ta'llim olyapti. Joriy o'quv yilida ularning safi yanada kengaydi. Qabul kvotasi 330 ta etib belgilandi va kirish imtihonlari yurtimizda birinchi marotaba onlayn shaklda ikki bosqichda o'tkazildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Б.Қулматова. Д.Буранова. "Таълим жараённида электрон таълим ва ананавий таълимнинг интеграцияси". НамДУ илмий ахборотномаси. 2020 йил 2-сон. 366- 373 бет.
2. I.Aldashev, N.Otakonov "Boshlang'ich ta'limgarayonini axborotlashtirish omillari" "Экономика и социум" №2(81) 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
3. С.Жабборова "Способы повысить интерес студентов к изучению темы и объем самостоятельной работы" "Экономика и социум" №6(73) 2020 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
4. Norbo'taev X.B., Eshquvatov Sh "Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'limgarayonini axborotlashtirish samaradorligi" zamonaliviy ta'limgarayonini axborotlashtirish omillari" "Экономика и социум" №4(83) 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
5. G.Yuldasheva "Axborot texnologiyalari-ta'limgarayonini axborotlashtirish omilli" "Экономика и социум" №4(83) 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)